

Har soniya holim so`rar insonim yo`q,
Dunyo-sida na davr, na davronim yo`q.
Sizga yetar bir mehribon insonim yo`q,
Qadriz yomon bilinyapti sizni ona!
Kunda yuz bor holim so`rab tolmas ediz,
Xasta bo`lsam halovatni bilmas ediz.
Yana ozroq dunyoyimda yurmasmidiz,
Qadrez yomon bilinyapti sizni ona!

SHIRCHOY

Uzoqboyeva Fotima Elyor qizi

TMC Institute in Toshkent

Qish. Juda sovuq. Qishda ko`p jon-zotlar isinishni bilgani kabi. An-horda kelinchakdek suzilib oqib keladigan suv ayni paytda o`zining ustiga oq gumbazli yopin-chig`ini tashlab olgan. Va u ham harakatdan to`xtamagan hayot manbaini yopin-chiqqa aylanishidan himoya qilib turgandek go`yo. Hovlimizdagi bir dona tol daraxtining uchidagi ingichka shoxiga, bahorda o`zimdan kichkina bo`lgan o`rtoqlarim bilan uchirgan varragim xuddi skeletni eslatib turgandek ilinib yotardi. Uni hech kim payqamasdi. Tinmay papirus chekib turgandek, har bir uyning mo`risidan tutun erkinlikka chiqqan qush kabi yoyilib, tarqalib, har xil shakllarga aylanib ko`kka uchib ketmoqda. Eng qizig`i shundaki, har tong ertalab derazada muzdan rasm chizilgan bo`lib, shunchalik chiroyli ko`rinar ediki, men ayozboboning mahorati deb o`ylardim. Ammo... Hozir eslasam, kul-gim keladi, nahotki kun sovuq ekanligini natijasida paydo bo`lgan bir san`at namunasi ekanligini anglamagan bo`lsam. Kim ham bolaligida ko`p narsaga aqli yetgan deb o`ylaysiz? Barcha qiziq hamda esda qolarli davrlarimiz mana shu bolalik on-larimizda sodir bo`lib, qarigan chog`imizda kulib, gohida quvonchdan yig`lab eslaydigan bu xotiralardir. Shu vaqtda buvim bilan bir dasturxon atrofida kitob mutolaa qilib o`tirar ekanmiz shunchalik berilib ketganimdan buvimning -qizim- degan gap-larini eshitmagan ekanmanmi?! yana bir marotaba bu so`zni balandroq aytganini his qildim va men labbay buvi degancha, xayolim kitobdagi voqealarda suzib yurgan edi. Kitob ichiga tushib qolib haligi qahramonning o`rniga o`zim o`ynayotgandek edim go`yo.

Buvim: shirchoy tayyorlab kelgin qizim, ertalab ichsak, balkim ozgina kuch bo'lar-a

Men: xop bo'ladi hozir tayyorlab olib kelaman dedim-u, darrov o'rnimdan sapchip turib ishga tushib ketdim. Qandni suvda irishini kuzatib turgan men, qaniydi endi shu sovuqda muzlab qolgan qalblar ham qand kabi erib, bir aralashtirganimizda butunlay yuq bo'lib ketsa, qanday yaxshi bo'lar edi to'g'rimi? o'zimga o'zim savol berdim. Yana o'zimga tavba deyman-u bu gaplarni qanday xayolimga kelib qolganiga hayron bo'laman. Bu xayollarga berilib ketishga nima sabab bo'lishi mumkin? Balki, haligi kitob ta'sir qilyotgandir yoki umuman olganda adabiyotga bo'lgan qiziqishimdir. Bu qiziqish qanday paydo bo'lgan ekan-a? Hozir bilib olamiz unda dedim yana o'zimga

Buvim: hoy Fotima, qizim, tayyor bo'lib qoldimi shirchoy?

Men: ha, ha, albatta, boryapman buvijon mana.

Yana xayolga berilib qolibman. Mana buvijon, shirchoyingizni olib keldim. So'ngra qo'limdagi piyolani xontaxta ustiga quyar ekanman, bir voqea yodimga tushib ketdi. Buvimga, keling buvijon, bir yoshlikni eslamaymizmi deya gap boshladim. Buvim ham yoshlik onlariga qaytishni juda ham istab turgandek, hech etiroz qilmasdan, "qani, qani, sehrli kovushchalaringni ishga solchi"- deya kulib yubordi.

Bundan o'n yil oldin men to'rtinchi sinf edim. (Hozir birinchi kursda tahsil olyapman.) Avgust oyining payshanba kuni edi. Ertasi kuni meni tug'ilgan kunim oilaviy bayram bo'lar edi har doim. Ammo, buvimning menga g'ayrioddiy kulib qarab turishidan nimadirni aytmoqchiligini payqagandek tikilib turardim. Gap boshladi bu safar tug'ilgan kuningni uyda nishonlamaymiz qizim, seni toshkentga olib ketaman usha yerda qilamiz, buyog'i sir bo'lib qolsin... Ichimdagi xursandchiligimni tiyib turolmadim -rostanmi?!- ajablanib so'radim. Shu kuni yo'lga chiqdek: buvim, men egizim Zuhra va akam. Ko'p vaqt o'tmay biz O'zbekistonning Poytaxti bo'lmish Toshkent shahriga yetib keldik, va bu mening Toshkentga birinchi bor tashrif buyurishim edi. Atrofda turli manzaralar, odamlar va o'zgacha ob-havo. Aqlim ko'p narsalarga yetmasa ham sayohat qilishni usha vaqt his qilgandim qanchalik insonning ichki bir tuyg'usini uyg'otishga yordam berishini. Kichkina bo'lganim uchundir balkim, xuddi adashib qoladigan boladek, buvimning qo'llaridan mahkam ushlab olganman. Biz yurishni davom etdek. Hayotim davomida metro nimaligini bilmagan men... mindim, ko'rdim va tushdim ammo aqlim yetmadi qanday qilib yer ostida joylashgan ekan-aaa?!

Mana shunday qiziq va hayratlanarli ichim to'la savollar hamda tassurotlar bilan biz O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi "Do'rmon" ijod uyiga yetib keldek. Xodimlari bunchalik xushmuomalali ekanligini aytmaymizmi?! Ajabo! Go'yoki chet davlatga sayohat uchun kelgandek edim. Faqat hamma uzbekcha gapirardida. Buvimga juda ko'p savol berganimdan qaysi biriga birinchi javob qaytarishga ham

shoshib qolgandek ko'rinardi menga. Keyin juda ham charchaganimdan qanday uxlab qolganimni ham bilmayman.

Shunday qilib, Juma kuni hali quyoshbobo uyg'onmagan mahaldan biz turdek. O'ylab qarasak, xodimlardan ham erta uyg'ongan ekanmiz. Ertalabki sayr deb aytdekda, ozgina atroflarga tomosha qilishga otlandek. Yo'l-yo'lakay suhbatlashib ketar chog'imizda Zulfiyaxonim, Abdulla Oripov va boshqa adib va adibalarimizning uylarini kuzatib o'tdek. Sira xayolimning bir burchagiga kelmagan hodisalar. Kim ham o'ylabdi deysiz hali o'n yoshga kirmagan bola kun kelib Madhiyamizning muallifini uchrataman deb o'ylashi. Xuddi shu voqea sodir bo'ldi. Uzoqdan bir mashina kelyotganini ko'rdek, u oldimizga kelib tuxtadi va ozgina vaqt jim qarab turdek. Moshinaning eshigi ochilib bir buylari basavlat, kelishgan kishi tushib kelardi. Men kuzatib turardim ammo tanimadim. Buvim bizga u kishining ism-shariflarini aytganidan keyin nimani his qilganimni bilmayman-u -nahotki- men Abdulla Oripovni ko'rgan bo'lsam, benoxoyat xursand edim. Yoniga bordek, buvim yaxshi tanir edi adibni. Men esa faqatgina madhiyamiz tufayli ism-shariflaridan yaxshi bilar edim. Chunki har kuni sinfda darsimiz boshlanmasdan oldin biz madhiyamizni va uning muallifi hamda bastakorini aytar edik. Shu boisdan, mening yodimda qolgandi. Buvim bilan birga bitta ishda ishlagan ekan to'qsoninchi yillarda. Salomlashib, hol-axvol so'rashdilar va navbat bizga keldi, qo'l berib salamlashdek go'yoki adabiyotning qo'lini tutib turgandek his qilardim iliq qo'llarini ushlagan vaqtimda. Ana o'sha lahzada Ustozimiz bir taklif aytdi. "Uyimizga kiringlar men uzim sizlarga shunday mazali bo'lgan shirchoy tayyorlab beraman"- degan gaplari hayotimga shirin adabiyot ta'mini olib kirgandek bo'lgandi. Bu menga tug'ilgan kunim uchun juda ham katta sovg'a bo'lgandi. Unutilmas to'rtinchi sinfligimning katta bir yodimda qoladigan xotiralarimdan biri bo'lib qoldi. Buvim ikkalamizning o'n yillik oldingi bo'lgan xotiralarni eslash bilan davom etadigan suhbatimiz mana shular edi. Buvimning ham yodida ekan ammo ba'zi joylarini men aytganimdan keyin esladi. Va men o'z kitobimni mutolaa qilishga kirishib ketdim, axir shirchoy tayyorlayotganimda xayolim shu kitobda ediku.

Mana o'n yildirki o'tdi, biz yana usha xonadon yonidan o'tdek. Men bu vaqtda ancha ulg'ayib qolgan edim. Ammo, men bu safar choyning shirasi avvalgidek totli emas ekanigini his qilar edim. Chunki Adib hayot emas edi. Xonadoning oldida duo qilib, bir pas o'tirib qaytdek.

Qish faslining achchiq sovuq kunlarida buvijonim bilan qurgan shirin suhbatimiz mana shunday davom etardi. Har doim shirchoy tayyorlayotganimda yoki so'zini eshitganimda mana shu voqealar xayolimda bir zum namoyon bo'ladi. Shuni anglagan edimki, insonning nimagadir bo'lgan qiziqishi yoki muvaffaqiyatga erishishida nimadir sabab bo'lar ekan. Mening adabiyotga, kitobga bo'lgan qiziqishim mana shu voqeadan keyin o'z aksini topdi deb shubxasiz aytolaman. Shu sababli shirchoy hayotimdagi shirin xotiradir.